

## **TOSHKENT VILOYATI HOVUZ BALIQCHILIK ХО'JALIGIDA IQLIMLASHTIRILGAN BALIQLAR GELMINTOFAUNASI**

**Usmanova Nilufar Mamatvali qizi  
Усманова Нилуфар Маматвали қизи  
Usmanova Nilufar Mamatvali qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Biologiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

Ташкентского государственного педагогического университета им. Низами

Преподаватель кафедры «Биологии и методики обучения»

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami Teacher of "Biology and methods of teaching"

[nilufarusmanova77@gmail.com](mailto:nilufarusmanova77@gmail.com)

**Annotatsiya** . Ushbu maqolada Toshkent viloyati hovuz baliqchilik xo'jaligida iqlimlashtirilgan baliqlar, ularning ahamiyati, gelmintofaunasi haqida so'z yuritilgan. O'r ganilgan baliqlarda qanday turdag'i gelmintlar parazitlik qilishi aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** gelmint, gelmintofauna, ixtiofauna, parazit, ixtiopatologik tadqiqot, iqlimlashtirish, monogenetik so'rg'ichlilar, *Dactilogirus vastator*, *Girodakctylus sp.*

**Annotatsiya.** В данной статье рассматривается интродукциированных рыбак в рыбоводстве прудовом Ташкентского области, их значениях о гельминтофауне. В изученных рыбак виявлены виды паразитов гельминтов.

**Ключевое слово:** гельминт, гельминтофауна, ихтиофауна, паразит, ихиопатологическое исследование, акклиматизация, моногенетические млекопитающие, *Dactilogirus vastator*, *Girodakctylus sp.*

**Annotation.** This article discusses the conditioned fish in the pond fishery of Tashkent region, their importance as helminth fauna. What types of helminths are parasitic in the studied fish have been identified.

**Keywords:** helminth, helminth fauna, ichthyofauna, parasite, ichthyopathological research, acclimatization, monogenetic mammals, *Dactilogirus vastator*, *Girodakctylus sp.*

**Kirish** . O'zbekiston hayvonot dunyosi o'ziga xos , boy va turli tumanligi bilan ajralib turadi . Hozirgi kunda O'zbekiston suv havzalarida baliq yetishtirish va rivojlantirishga katta ahamiyat bermoqda. Tabiiy va sun'iy suv havzalarini ixtiofaunasi o'rganish , baliq havzalarini ko'paytirishni ilmiy asosini tashkil etadi. Baliq parazitlariga kelsak , baliq zaxiralarini ko'paytirish ilmiy asosini tashkil etadi .Baliq parazitlariga kelsak, bizning sharoitimidza yaxshi o'r ganilmagan. O'zbekistonning hayvovot dunyosi o'ziga xos, boy turli-tumandir.Respublika suv faunasini asosini baliqlar egallaydi.

Asosiy qism.

XX asrning ikkinchi yarmidan O'zbekiston ixtiofaunasi tashqaridan ko'plab baliqlar olib kelinishi hisobiga boyidi. Ularning ba'zialri : do'ngpeshona,oq amur,pelyad,sevan gul balig'i va boshqalar maxsus iqlimlashtirilgan ,boshqalari: buqabaliqlar,amur chebachkasi,ilonbosh baliq va baliqlar suv havzalarimizga tasodifan kelib qolgan va ular bilan bir qancha baliq parazitlari ham baliqlar parazitofaunasini ko'payishiga olib keldi.

Baliq va baliq mahsulotlari inson salomatligi uchun muhim hisoblanadi.Shuning uchun respublikada baliq yetishtirish uning sifat va son ko'rsatkichlarini aniqlash ,ularni biologik,ekologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilishni taqozo etadi.

Prizidentimiz respublikaning turli viloyatlariga tashriflarida so'zlagan nutqlarida baliqchilikka ham kata e'tibor qaratilishi kerakligiga kata urg'u berdilar.

Keyingi paytda respublikada ekologik holatni o'zgarishi,suv havzlariga bo'layotgan antropogen tasirlar ,ko'pchilik baliqlarning yashash sharoitini keskin o'zgarishiga olib kledi. Bunday va shu kabi muommolarni bartaraf etish uchun baliq yetishtiradigan suv havzalarini ekologik sharoitini ,baliqchilik xo'jaliklariga katta ziyon keltiradigan baliq parazitlarini har tomonlama o'rganish ,baliq zaxiralarini ko'paytirish kabi ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Ixtiopatologik tadqiqotlar Toshkent viloyati baliqchilikni rivojlantirish ilmiy stansiayasida olib borilgan. Baliqlar asosan to'rlar ,qarmoqlar orqali tutiladi .Tutilgan baliqlarni qaysi turga mansubligi aniqlagichlar orqali aniqlandi.

Parazitologik tadqiqotlar umumparazitiologik tadqiqotlar o'tkazish uslublari yordamida olib boriladi.Ichki organlar parazitlari patalo-anatomik usullar yordamida so'yib tekshirildi.

Sazan, zog'ara baliq (Cyprinus carpio Linnaeus,1758) yirik ,tez o'sadigan baliq ,eng yiriklari 1 m gacha ,ularning og'irligi esa 20-30 kg gacha boradi. Odatda uzunligi 35-55 sm og'irligi 1-3 kg bo'ladi. Tanasi cho'ziq ,uncha baland emas, tangachlari yirik. Yon tomon chizig'ida 36-40 tagacha tangachalari bor. Tuzi oltin sariq rangda .Dum suzgichi to'q kulrang .Yelka suzgichi uzun ,birinchi parragi o'tkir. Yelka suzgichida 18-19 ta parrak mavjud. Og'zi pastda joylashgan.

Yevroosiyoda keng tarqalgan . O'zbekistonda deyarli barcha tekislik suv havzalarida uchraydi,xovuz ho'jaliklarida ko'paytiriladi. Avval Orol dengizida yashagan ,keyinchalik ekologik halokat tufayli yo'qolib ketgan .

Ma'lumki baliqlarning oziganish xususiyatlari ularning turli xil parazitlar bilan zararlanish darajasini belgilab beradi. Bunda avvaliga baliq tanasining jarohatlangan yuzasidagi shilimshiq modda hamda jabra yuzasidagi shilimshiq modda qizaradi.so'ngra oqaradi va buziladi.Kasallangan baliqlar qirg'oqda ayniqsa,suv tushadigan joyda to'planadi va og'iz bilan nafas oladi.

Baliqlar havzalardan tutilgan zahoti ularning turi,o'rtacha og'irligi,Yoshi,o'lchami,baliqnning holati o'rganiladi.


Ekologik pastlik ovlash ahamiyatiga ega baliq turi .Ilmiy stansiya suv havzalaridan turli yoshdagи 10 ta zog'ora balilqlar tutib parazitologik tekshiruvlar o'tkazildi. Tadqiqot ishlari Toshkent viloyati Yangiyo'l baliqchilik xo'jaligi hovuzlarida olib borildi. Tekshirilgan baliqlardan 4 tasining oyqulog'i(jabradi) dan Plathelmintes – yassi chuvalchanglar tipi Dactylogyrae oilasiga mansub dactylogyrus vastator paraziti bilan kasallananish topildi. Bitta baliqnning oyqulog'ida 5 tagacha gelmint borligi aniqlandi. Girodaktilus esa 10 dona gacha topildi. Topilgan parazitlar monogenetik so'rg'ichlilar vakili bo'lib ,ular karpsimon baliqlarda parazitlik qiladi.

Monogeniyalar tanasi cho'ziq yassi bo'lib ,tanasing keying tomonida yopishuv diskii bor . Yopishuv diskida xo'jayin tanasiga yopishish uchun zarur bo'lgan bir qancha ilmoqlari ,so'rg'ichlari,,ikki tavaqali klapanlari bo'ladi. Bunday moslamalar ularni baliq tanasidan tushib ketmasligini ta'minlaydi. Ularning tanasining oldingi tomonida ham uncha katta bo'limgan

so'rg'ichlari bo'ladi. Bu so'rg'ichlar parazit tanasining oldingi qismini xo'jayin tanasiga yopishib turishini ta'minlaydi.


*Dactillogirus vastator* – karpsimon baliqlar (1-rasm) ektoparaziti . Tana uzunligi 1-3 mm., baliqlar jabrasida parazitlik qiladi, o'sha joyga tuxum qo'yadi. Tuxumdan kiprikli lichinkalar chiqadi. Lichinkaning oldingi qismida ikki juft ko'zлari ,orqa tmonida ilmoqchali diskি bo'ladi . Lichinkalar shu yerni o'zida yoki boshqa baliqlar jabralariga o'tib jinsiy voyaga yetadi. Monogeneyalar germafrodit bo'llib, ular o'z-o'zini urug'lantiradi. Shuning bilan birga ayrim turlarida o'z-o'zini urug'lantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar ham rivojlangan

1-rasm



*Girodakctylus sp.* – ushbu ko'p so'rg'ichli tirik tug'adi.(2-rasm). Karpsimon va boshqa balilqalr ektoparaziti hisoblanadi. Germofrodit. Parazit o'zini o'zi otalantira oladi,bachadonida partonogenetik yo'l bilan avval embrion shakllanadi. Bu embrion voyaga yetkuncha uni ichida ikinchi embrion ,keyingisini ichida uchinchi ,uchiinchisini ichida to'rtinchi embrion shakllanadi.

2-rasm



Monogenetik so'rg'ichlilar baliqchilikka katta zarar keltiradi. Ayniqsa chuchuk suv baliqchilik xo'jaliklarida daktilogiruslar vakillari katta pathogen ahamiyatga ega. Ular baliqlar terisi shilimshiq moddalari epiteliy ,qoni bilan oziqlanib ,balilqlarni yoppasiga qirilib keishiga olib keladi.

#### **Adabiyotlar ro'yhati :**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori Baliqchilik tarmog'ida monopoliyadan chiqarish va xususiyashtirishni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami , 2003y .,14-15-son 106-modda
2. Dadayev S., Abdurahmonova G., Umumi parazitologiya –Tashkent ., 2013 .S. 389
3. Mirabdullayev I.M., Mirzayev U.K., Kuzmetov A.R. O'zbekiston va qo'shni hududlar baliqlari aniqlagichi –T. 2011. S. 108
4. Niyozov L.S., Gafarov X.G., Питание рыб . Tashkent 2012 .